Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/2

Otabek MUHAMMADIYEV[a]

[a]*Doctor of Philosophy in History*
Deputy Director of the Imam Bukhari International Scientific Research Center
Khoja Ismoil town, Poyariq District, Samarqand, 141306, Uzbekistan
E-mail: otabekmuhammad@gmail.com

DORUL HADIS – HADIS MARKAZLARI FAOLIYATI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dorul hadis – hadis markazlarining shakllanishi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, siyosiy, diniy hamda ilmiy omillar tahlil qilinadi. Dorul hadislarning vujudga kelishi hadis ilmining tarixiy taraqqiyoti, jamiyatdagi diniy-siyosiy jarayonlar va ta'lim tizimidagi ixtisoslashuv bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Xususan, Fotimiy-botiniy harakatlari va g'oyalariga qarshi ahli sunna val jamoani himoya qilishda hadislarga ehtiyoj, davlat boshqaruvi uchun malakali kadrlar tayyorlash hamda hadislarni o'rganishga bo'lgan talabning ortishi dorul hadislarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatgan muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi.*

Shuningdek, hadis ilmining rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar, jumladan, hadis izlash maqsadidagi ilmiy safarlar – rihlaning susayishi, hadislarni tadvin va tasnif qilish jarayonlarining yakunlanishi, imlo majlislarida ishtirokchilar sonining ortishi hamda hadis ilmining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Nuriddin Mahmud Zangiyning dorul hadislar faoliyatini rivojlantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari dorul hadislarning shakllanishi davrning ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari bilan bir qatorda, hadis ilmining ichki taraqqiyoti va ixtisoslashuv jarayonlari bilan ham bevosita bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *dorul hadis, hadis, hadis ilmi, hadis tarixi, sunnat, rihla, imlo majlisi, mumliy, mustamliy, tadvin, tasnif, ixtisoslashuv, Saljuqiylar, Nuriddin Mahmud Zangiy, Fotimiylar, botiniylar.*

AN ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF DAR AL-HADITH – HADITH CENTERS

Abstract. *This article analyzes the social, political, religious, and academic factors that influenced the formation and activity of Dar al-Hadiths – Hadith centers. The emergence of Dar al-Hadiths is illuminated in close connection with the historical evolution of Hadith science, religious-political processes in society, and specialization within the education system. In particular, the urgent need for Hadiths to protect the Ahl al-Sunnah wal-Jama'ah against the movements and ideologies of the Fatimids and Batinites, the training of qualified personnel for state administration, and the increasing demand for Hadith studies are examined as crucial factors driving the establishment of Dar al-Hadiths.*

Furthermore, the paper analyzes the processes linked to the development of Hadith science, including the decline of rihla (academic travels for seeking Hadiths), the completion of the tadwin and tasnif of Hadiths, the growing number of participants in imla assemblies, and the specific characteristics of Hadith scholarship. Special attention is dedicated to the role of Nur al-Din Mahmud Zangi in advancing the activities of Dar al-Hadiths. The research findings indicate that the formation of Dar al-Hadiths was directly shaped not only by the socio-political needs of the era but also by the internal development and specialization processes within the field of Hadith science.

Keywords: *Dar al-Hadith, Hadith, Hadith science, history of Hadith, Sunnah, rihla, imla assembly, mumli, mustamli, tadwin, tasnif, specialization, Seljuks, Nur al-Din Mahmud Zangi, Fatimids, Batinites.*

KIRISH

Islom dini o‘qish va yozishga, demakki, ilmga katta ahamiyat berishi ma’lum. Qur’ondan nozil bo‘lgan ilk oyatning «O‘qi!» (Abdulaziz Mansur, 2021:597) (Alaq surasi, 1-oyat) bo‘lishi, qalam bilan qasam ichilishi (Abdulaziz Mansur, 2021:564) (Qalam surasi, 1-oyat), shuningdek, «Hech biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?» (Abdulaziz Mansur, 2021:458) (Zumar surasi, 9-oyat) singari oyatlarning mavjudligi buni yaqqol tasdiqlaydi. Ilm va olimlarga nisbatan ko‘rsatilgan bu munosabat hadislarda ham ko‘p bora ta’kidlangan. Hadis to‘plamlaridan asosiy mavzu sifatida o‘rin olgan «Kitob al-ilm» (Ilm kitobi) boblariga nazar solish ham buning ayni haqiqat ekanini ko‘rsatadi. Islom tarixida ilm va uning maqomi, ilm o‘rganish odoblariga bag‘ishlab yozilgan ko‘plab asarlardan tashqari, aynan hadis ilmi va uning ahamiyatiga oid manbalar ham yozilgan[1].

Islomda ilmning ahamiyatini ko‘rsatib berishga qaratilgan amaliy harakatlar haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Jumladan, Payg‘ambarimizning (s.a.v.) Badrda asir tushganlar orasidan savodlilarini har biri o‘n nafar yosh musulmonga o‘qish va yozishni o‘rgatishi sharti bilan ozod qilganliklari (Ibn Sa’d, 2001:20) tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Qur’on va sunnatda ilm-ma’rifatga qaratilgan alohida e’tibor musulmon jamiyatlarida ta’lim-tarbiya faoliyatining juda erta davrlarda boshlanishiga turtki bo‘ldi. Shu bois, islomning ilk Makka davridayoq uylardan ta’lim-tarbiya maqsadida foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Ular orasida «Dor al-Arqam» (Arqamning uyi) eng mashhurlaridan biri bo‘lgan. Madina davrida qurilgan Masjidi Nabaviy ilk masjid bo‘lish bilan birga, ta’lim maskani vazifasini ham bajargan. Sahobiylar, tobeinlar va tabaa tobeinlar davrida ilm markazlari sifatida tanilgan shaharlarning deyarli barcha masjidlarida ulamolar ilmiy majlislar tashkil etganlar. Vaqt o‘tishi bilan «kuttob» deb atalgan, o‘qish va yozishni o‘rgatishga ixtisoslashgan muassasalar, Qur’on va islom dini asoslari o‘qitiladigan maktablar, saroylar, kitob do‘konlari, ulamolarning uylari va adabiyot xonalari (Ahmad Chalabiy, 1983:33) madrasalar tashkil etilgunga qadar ta’lim-tarbiya maskanlari sifatida foydalanilgan.

Shu bilan birga, madrasa deb ataluvchi muassasalar ilk bor Balx va Buxorodagi Budda ibodatxonalariga (Vihara) taqlidan tashkil etilgan, degan taxminlar bor. Ilk Saljuqiy madrasasi esa To‘g‘rulbek zamonida Nishopurda qurilgan (Usmon Turon, 1969:257). Biroq «Nizomiya» madrasasiga qadar faoliyat yuritgan mazkur muassasalar tashkil etilish sababi, maqsad va vazifalari jihatidan keyingi davrlarga oid mukammal madrasalardan quyi darajada bo‘lgani, uzluksiz ta’lim ta’minlanmagani sababli, ilk madrasa sifatida qabul qilinmagan. Mazkur xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan va ilk tizimli madrasa sifatida tan olingan muassasa – Saljuqiy vazir Nizomulmulkning 1067-yil Bag‘dodda qurdirgan «Nizomiya» madrasasidir (Boltaji, 1976:8). Umuman olganda, madrasalar butun islom olamida mashhur bo‘lib, ular mavjud bo‘lmagan birorta shahar qolmagan edi (Abu Shoma, 2002:141). Shunday qilib, madrasalarning davlat tomonidan qurilishi, ta’limning bepul bo‘lishi va islom olamiga keng tarqalishi Saljuqiylarning mehnati samarasidir (Usmon Turon, 1969:256).

Umumiy ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda, hadislarni o‘rgatish uchun maxsus joylarga ham ehtiyoj sezilgan. Sharoitdan kelib chiqib, uy, masjid va madrasalar mana shunday joylar vazifasini bajargan. «Nizomiya» madrasasi qurilganidan taxminan bir asr o‘tib, hadislarni o‘rgatish uchun maktablar tashkil etila boshlangan. Bu umumiy madrasalardan farq qiladigan, faqat hadislarni o‘rgatishga ixtisoslashgan yangi muassasa –dorul hadis markazlaridir. Rasmiy ravishda tashkil etilgan ilk dorul hadis markazi Saljuqiy otabeklaridan Sulton Nuriddin Mahmud Zangiy tomonidan 1168-yil Damashqda bunyod etilgan «Nuriya» Dorul hadis markazidir (Nuaymiy, 1990:74; Chalabiy, 1983:121). Oradan qisqa vaqt o‘tib, yangi tashkil etilgan mazkur ixtisoslashgan madrasalar islom olamining deyarli barcha mintaqa va shaharlariga kirib bordi. Ko‘rinib turibdiki, umumiy madrasalardan so‘ng dorul hadis markazlari ham Saljuqiylar davri mahsuli bo‘lgan.

ASOSIY QISM

«Dorul hadis» atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, «dor» so‘zi «joy», «makon» va «uy» ma’nolarini ifoda etadi. Hadis esa Payg‘ambarimizga (s.a.v.) nisbat berilgan so‘zlar, fe’llar va taqrirlarni anglatadi. Mazkur ikki so‘zdan tashkil topgan «dorul hadis» birikmasi «hadis o‘qitiladigan» joy degan ma’noni bildiradi (Bozkurt, 1993:527). Xususan, hadis o‘qitiladigan madrasalar shunday nomlangan (Pakalin, 1983:398).

1. Muayyan ijtimoiy hodisani faqat birgina sababga bog‘lab bo‘lmaganidek, mazkur muassasalarning paydo bo‘lishida ham faqat bir omil haqida gapirish to‘g‘ri emas. Shu bois, dorul hadis markazlarining shakllanishiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatgan, deb

[1] Bunday asarlar orasida Xatib Bag‘dodiyning «Sharaf as’hob al-hadis» va Ibn Abdulbarning «Jomi’ bayon al-ilm va fazlih» nomli asarlari muhim manbalar hisoblanadi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

aytish mumkin. Chunonchi, ularning tashkil topishida ko‘plab ijtimoiy, siyosiy, diniy va ilmiy sabablar rol o‘ynagan. Ushbu ixtisoslashgan madrasalarning barpo bo‘lishini taqozo etgan omillarning ba’zilari o‘sha davrga xos bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ba’zilari hadis ilmining tabiati va tarixiy rivojlanishi bilan aloqadordir. Shu sababli, dorul hadis markazlarining vujudga kelishini tayyorlagan omillarni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

2. Ijtimoiy va siyosiy sabablar.

3. Hadis ilmining tarixiy rivojlanishi va tabiati bilan bog‘liq sabablar.

Ilk dorul hadis markazlari tashkil topgan davr siyosiy-ijtimoiy muhiti, tarixiy voqea-hodisalarni inobatga olib, ijtimoiy va siyosiy holatlarga bog‘liq sabablarni to‘rt qismga ajratish mumkin:

1. Fotimiy/Botiniy g‘oyaviy qarashlariga qarshi ahli sunna val jamoa ta’limotini himoya qilish.

2. Ahli sunna val jamoani tashqi ta’sirlardan himoya qilish vositasi sifatida hadis/sunnatni ko‘rish.

3. Davlat idoralari uchun malakali kadrlar tayyorlash.

4. Ixtisoslashuv g‘oyasi.

Yuqorida ilk dorul hadis markazi saljuqiy otabeklardan bo‘lgan Nuriddin Mahmud Zangiy tomonidan bunyod etilgani zikr qilingan edi. Bu davrda kuzatilgan siyosiy-ijtimoiy voqealar va Saljuqiylar davlati vujudga kelgan asrda ro‘y bergan o‘zgarishlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mahmud Zangiy davridan oldingi Saljuqiylar siyosiy tarixiga qaralsa, Saljuqiy-Abbosiy munosabatlari (bu davrda xalifalik Abbosiylar qo‘lida bo‘lgan), tashqi xavf sifatida salib yurishlari va islom olamidagi sunniy-fotimiy ziddiyati (Takkush, 1999:17) eng muhim mavzular sifatida ko‘zga tashlanadi. Bular ichida sunniy/fotimiy ziddiyati bizning mavzumiz uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois, boshqa ikki mavzu mustaqil ravishda emas, balki faqat mavzu yaxlitligi talab qilgan o‘rinlarda tilga olinadi.

Saljuqiylar va Abbosiylar o‘rtasidagi munosabatlar To‘g‘rulbekning 1037-yil Xurosonda o‘z davlati mustaqilligini e’lon qilishi bilan boshlangan (Takkush, 1999:18). Oradan ko‘p o‘tmay, shia Buvayhiylarning bosimidan qutulish uchun Abbosiy xalifa Qoim biamrilloh (Abu Ja’far Abdulloh) To‘g‘rulbekni Bag‘dodga taklif qildi va u 1055-yilda Bag‘dodga kirdi (Turon, 1969:91-92). To‘g‘rulbek Bag‘dodni egallagach, Abbosiy xalifa To‘g‘rulbekni o‘z hukmronligi ostidagi barcha yerlarda sulton sifatida tan olib, xutbalarda uning nomini zikr qilishni buyurdi (Takkush, 1999:19). Saljuqiylarning Bag‘dodga kirishi ahli sunnaning shialardan ustun mavqeni qo‘lga kiritishining ilk bosqichi bo‘ldi. Chunki buning oqibatida shialikni keng targ‘ib qilgan Buvayhiylarning imkoniyatlari barham topdi (Chalabiy, 1983:111).

Fotimiylar esa, xususan Bag‘dodda, umuman olganda esa, butun islom olamida sunniylar ustidan hukmronlik qilishni istardilar. Buning uchun ular birinchi navbatda Misrni qo‘lga kiritdilar. Shundan so‘ng Bilod ash-Shomni (Shom o‘lkasini) egallash ularning asosiy maqsadiga aylandi. Ular o‘z maqsadlariga erishib, 1038–1058-yillarda Shomning turli hududlarida o‘z siyosiy ta’sirini o‘rnatdilar. Shu tariqa, Misr, Shomning bir qismi va Damashq Fotimiylar qo‘liga o‘tdi. Bu bilan Fotimiylar islom olamidagi o‘z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Natijada islom olami ikki asr davomida (969–1171 yillar) ikki xil mazhabga bo‘lingan holda qoldi. Bu holat musulmonlarning qudratiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu bo‘linishning achchiq oqibatlari salib yurishlari paytida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, XI asr sunniylik himoyachisi bo‘lgan Saljuqiylar bilan shialik/ismoiliylik mazhabi himoyachisi bo‘lgan Fotimiylar o‘rtasidagi kurash maydoniga aylandi (Takkush, 1999:28).

Bu kurashda Saljuqiylar ilmiy muassasalar barpo etish orqali botiniylik faoliyatining vayronkor oqibatlaridan o‘zlarini himoya qilishni maqsad qildilar. Shu sababli, fotimiy/botiniy qarashlarga va sunniylikka qarshi targ‘ibotlarga qarshi sunniylikni mudofaa qilish g‘oyasi «Nizomiya» madrasalarining tashkil etilishiga sabab bo‘lgan omillar qatorida zikr etiladi (Boltaji, 1976:8; A. Gul, 1997:5). Bu maqsadda madrasa qurish faoliyati keyingi davrlarda ham davom etgan. Biroq ularning hech birini Nuriddin Mahmud Zangiy darajasiga qiyoslab bo‘lmaydi (Chalabiy, 1983:112).

Saljuqiylar davlatiga asos solingan ilk kundan boshlab yuzaga kelgan ichki va tashqi tahdidlar ilk dorul hadis asoschisi Nuriddin Zangiy davrida ham davom etdi. Zangiy boshqargan Halab va Shom hududlari bu kurashning markaziy nuqtalaridan biri edi. Zero, salibchilar «Bilod ash-Shom» deb ataluvchi mintaqaning bir qismini, xususan, Quddusni (Takkush, 2009:235) bosib olgan edilar. Fotimiylar esa Damashqni ham o‘z ichiga olgan bu hududning bir qismini 1038–1058-yillar oralig‘ida o‘zlariga bo‘ysundirgan edilar (Takkush, 1999:28). Misrda esa hokimiyat hamon Fotimiylar qo‘lida edi (Sallobiy, 2007:555). Bunday sharoitda Zangiy ham ushbu kurashga qo‘shildi. Ayniqsa, Fotimiylarga qarshi sunniylikni himoya qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlari va bu yo‘lda amalga oshirgan faoliyati mavzuni oydinlashtirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Shu ma’noda, Nuriddin Mahmud Zangiyning eng katta maqsadi saf va maqsad birligini ta’minlash edi. Saf birligi Bilod ash-Shom va Misrning yagona siyosiy hokimiyat tomonidan boshqarilishi, maqsad birligi esa barcha musulmonlarning ahli sunna bayrog‘i ostida birlashishi edi (Takkush, 1999:252). Chunki u Fotimiylarning e’tiqodini «bid’at» deb bilar va jamiyatga zarar keltiradi deb hisoblagani uchun ularga qarshi kurashar edi. Shu sababli, Zangiy o‘zi egallagan barcha shaharlarda Fotimiylarga/Botiniylarga tegishli bo‘lgan barcha unsurlarni taqiqlab qo‘ygan edi (Sallobiy, 2006:134). Uning bu boradagi faoliyati shu qadar mashhur bo‘lganki, u haqida «Nuriddin o‘z mamlakatida sunnatni ustuvor qildi, bid’atni yo‘qotdi», (Ibn Kasir, 1998:481; Sallobiy, 2007:63), degan e’tiroflar bildirilgan.

Nuriddin Mahmudning Fotimiy/Botiniylarga qarshi eng samarali kurash uslubi o‘zi tashkil etgan ta’lim-tarbiya muassasalari bo‘ldi. Shu ma’noda, u ta’lim siyosatini quyidagicha izohlagan:«Madrasalar/maktablarni tashkil etar ekanmiz, bu orqali faqat ilmning yoyilishini, bu o‘lkada bid’atni bekor qilishni va dinning zohir bo‘lishini (asl holida namoyon bo‘lishini) istadik» (Sallobiy, 2006:134).

Zangiy siyosiy jihatdan qabul qilgan tamoyillardan biri diniy va madaniy hayotni botiniylik kabi adashgan diniy oqimlardan hamda yunon falsafasining ta’siridan asrash edi. Shu maqsadda davlat madrasa, dorul qur’on va dorul hadislar tashkil etishni o‘z zimmasiga oldi. Shu tariqa, ijtimoiy, siyosiy tafakkur, shuningdek, aqidaga ta’sir ko‘rsatgan turli falsafiy qarashlar hamda ismoiliylik mazhabi g‘oyalarini bartaraf etish maqsad qilindi. Bu maqsad yo‘lida ahli sunna olimlari ham davlat bilan yonma-yon faoliyat olib bordilar. Ushbu ta’lim harakatlari xususan botiniylikka/ismoiliylikka, umuman olganda esa, shialikka qarshi qaratilgan edi. Bularning barchasi sunniy ilm dargohlaridagi o‘qitish uslublariga o‘sha davr muhiti ta’sir qilganini ko‘rsatadi (Sallobiy, 2007:67).

Zangiy botiniylik/fotimiylik bilan kurashish uchun bir tomondan madrasa, dorul qur’on va dorul hadis markazlarini barpo etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Abdulqodir Jiyloniy (G‘iloniy) rahnamoligidagi qodiriya kabi mo‘tadil so‘fiylik harakatlaridan ham foydalandi. Buning uchun so‘fiylarga rabotlar va zoviyalar qurdirib berdi (Sallobiy, 2006:134).

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Zangiydan taxminan bir asr avval tashkil etilgan umumiy madrasalarning qurilish sabablari sifatida zikr qilingan omil – fotimiy/botiniylarning g‘oyaviy qarashlaridan sunniylikni himoya qilish g‘oyasi dorul hadis markazlari barpo etilishini ham asosiy sabablaridan bo‘ldi. Zangiy ahli sunnani yanada faolroq himoya qilib, buning uchun aynan ta’lim-tarbiya muassasalarini tanladi. Shu bois, u qurdirgan dorul hadis markazidan ko‘zlangan maqsadlardan biri fotimiy/botiniy g‘oyalariga qarshi sunniylik ta’limotini himoya qilish bo‘lgan, deb aytish mumkin.

«Nizomiya» madrasalari va ilk dorul hadislar tashkil etilgan davrda sunniy Saljuqiylar bilan botiniy/ismoiliy Fotimiylar o‘rtasida kurash kechgani tarixiy haqiqatdir. Ushbu tarixiy voqea, ayni paytda, maktablashtirish jarayonining sabablaridan biri bo‘lgan. Adashgan va bid’at deb hisoblangan botiniy g‘oyalarga barham berib, sunniylik aqidasini qaror toptirish uchun, eng avvalo, kurash uslubini belgilab olish lozim edi. Mazkur uslub ilmiy faoliyatlarning tizimlashuvi orqali xalqqa to‘g‘ri ma’lumotlarni yetkazish shaklida namoyon bo‘ldi (Chalabiy, 1983:111).

Bu uslub ilk bor Bag‘dodda tashkil etilgan «Nizomiya» madrasalarida amaliyotga tatbiq etildi. Keyinchalik butun musulmon olamiga keng tarqaldi. Ilk dorul hadis asoschisi Nuriddin Zangiy bir vaqtning o‘zida madrasa, masjid va dorul hadis qurdirdi. Shu tariqa, umumiy madrasalardan farqli ravishda, ixtisoslashgan madrasa ham ta’lim-tarbiya muassasalari qatoriga qo‘shildi. Musulmon olamida hadisga ixtisoslashgan mazkur dargohlardan tashqari, yana dorul qurrolarning (Qur’on qiroati maktablari) ham mavjud bo‘lgan (Nuaymiy, 1990:7). Diniy ilmlar sohasida ushbu ikki turdagi ixtisoslashgan madrasadan boshqa xuddi shu maqsadda tashkil etilgan (boshqa fanlarga oid) madrasalar uchramaydi[2].

Bu holatni ilmlarning tabiiy tuzilishi bilan izohlash mumkin bo‘lganidek, ijtimoiy va siyosiy voqealarga qarshi kurash uslubi sifatida ham tushuntirish mumkin. Ushbu ehtimol hisobga olinganda, botiniylar g‘oyalarining salbiy oqibatlariga qarshi hadislar asosida kurash uslubi sifatida qabul qilingan deyish mumkin. Zero, ushbu muassasaning ilk asoschisi Nuriddin Mahmud Zangiy hadislarni o‘rganish va o‘rgatishga katta ahamiyat bergan. Uning sunniylikni tiklash va shialik qarashlariga qarshi kurash g‘oyasida hadis ta’limi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, u dorul hadis tashkil etishdan tashqari, Halab jome masjidida hadis ta’limi uchun zoviya ham vaqf qilgan. Ushbu faoliyatlar Zangiyning sunniylikni qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi eng yaqqol sa’y-harakatlaridir (Sallobiy, 2007:68).

[2] Ushbu o‘rinda «diniy ilmlar sohasida» iborasiga alohida ahamiyat berish lozim. Zero, islom olamida tashkil etilgan ixtisoslashgan madrasalar faqatgina dorul hadis va dorul qurrolardan iborat bo‘lmagan, balki dorush shifo kabi tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan madrasalar ham qurilgan. Biroq tafsir, fiqh, kalom kabi ilmlarga ixtisoslashgan maxsus madrasalar qurilmagan.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Nuriddin Mahmud Zangiy botiniy/fotimiylar g‘oyalaridan ahli sunna ta’limotini himoya qilish uslubi sifatida hadis ta’limi g‘oyasini ilgari surgan. U ayni uslubni nafaqat fotimiy/botiniylarning g‘oyalariga qarshi, balki tashqi tahdid bo‘lgan salibchilarga qarshi ham qo‘llagani ma’lum. Uning Quddus va Bilod ash-Shomning katta qismini egallab olgan salibchilarga qarshi kurashga tayyorlangani manbalarda zikr etilgan (Sallobiy, 2007:68).

Zangiy, ayniqsa botiniylik bilan kechgan kurashda uslub sifatida hadislardan foydalanishni tanlagani va hadis o‘qitishga alohida e’tibor qaratgan. Boshqacha aytganda, Zangiy ahli sunnani himoya qilishning samarali vositasi sifatida dorul hadis markazlari va hadis ta’limini ko‘rgan.

Ilk rasmiy va funksional madrasalar qurilgan davr sifatida qabul qilingan Saljuqiylar hukmronligi yillarida tashkil etilgan «Nizomiya» madrasasining qurilishiga sabab bo‘lgan ko‘plab omillarni sanab o‘tish mumkin. Ulardan biri davlat boshqaruvi uchun layoqatli bo‘lgan rahbar va xodimlar tayyorlash g‘oyasidir (A. Yardim, 1997:186; N. To‘palo‘g‘li, 1988:179). Madrasalarning tashkil etilish sabablari orasida zikr etilgan ushbu omil ta’lim-tarbiya muassasasi sifatida faoliyat yuritgan barcha maskanlar uchun xos bo‘lgan. Zotan, dorul hadis markazlarining tarix sahnasidan o‘rin olishida ham ana shunday sababni ko‘rsatish mumkin. Chunki bu muassasalar bitiruvchilarining turli davlat lavozimlarida xizmat qilishi tabiiy hol bo‘lgan. Ayniqsa, ilk dorul hadis markazi barpo etilgan mintaqadagi ijtimoiy va siyosiy sharoitlar hisobga olinsa, hadislarni yaxshi biladigan kadrlarga ehtiyoj yanada yuqori bo‘lganligi ayon bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan sababni yaxshiroq tushunish uchun bir jihatni ta’kidlab o‘tish lozim. Ta’lim yo‘li bilan malakali davlat arboblarini tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltirgan yana bir sabab ayrim mutaassib oqimlar tomonidan jamiyatda barqarorlikni izdan chiqarish, e’tiqodiy birlikni parokanda qilishga qaratilgan g‘oyalarning ilgari surilishi bo‘lgan.

Abbosiylar davrida Buvayhiylar Bag‘dodda zulmni yanada oshirgan, jumladan, vazir Ibn Muslimaga yomonlik qilib, unga tegishli odamlarni o‘ldirgan edilar (Turon, 1969:91). To‘g‘rulbekning Bag‘dodga kirishi bilan bu bosimlarga chek qo‘yildi. Biroq Saljuqiylar davrida ham Hasan Sabboh tomonidan asos solingan botiniy/ismoiliy harakati faollashib, ayniqsa Malikshoh vafotidan keyin yuz bergan siyosiy parokandalik va salib yurishlari boshlanishi bilan kuchayib ketdi. Bu jarayonda ular o‘z fidoyilari orqali davlat arboblari, olimlar va qo‘mondonlarga qarshi suiqasdlar uyushtirdilar. Bundan tashqari, davlat idoralari, saroylar va xonadonlargacha suqilib kirib, hamma joyga shubha va qo‘rquv soldilar (Turon, 1969:244). Ba’zi tarixchilarning fikricha, Nizomulmulk ham botiniy fidoyisi tomonidan o‘ldirilgan (Turon, 1969:171). Yuz bergan bu va shunga o‘xshash ayanchli voqealardan ibrat olgan saljuqiy hukmdorlar davlat lavozimlarida ahli sunna aqidasi asosida ta’lim olgan shaxslarga ehtiyoj sezgan bo‘lishlari tabiiy. Shundan kelib chiqqan holda, ikkinchi sabab, ya’ni bid’atchi firqalarga qarshi kurashning eng samarali yo‘li hadislardan foydalanish ekani inobatga olinsa, nima sababdan hadislarning ahli sunna val jamoa ta’limoti qarashlari asosida o‘rgatilishiga katta ahamiyat qaratilgani o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi. Mana shu maqsadda umumiy madrasalar bilan birga, dorul hadislarni tashkil etish zarurati yuzaga kelgan.

Dorul hadis markazlarining davlat idoralari uchun kadrlar yetishtirishga xizmat qilganini Usmoniylar davlati misolida yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin. Ayniqsa, «Sulaymoniya» dorul hadis markazi tashkil etilgandan so‘ng, u madrasa tizimining eng yuqori pog‘onasidan o‘rin oldi va bu yerning mudarrisi, agar istasa, «mavlaviyat» (yuqori martabali qozilik) deb ataluvchi viloyatlardan biriga qozi etib tayinlanar edi. Shu munosabat bilan, hijriy 1166-yilda Izmir qoziligi «Sulaymoniya» dorul hadisi mudarrisi Oqkirmoniy Muhammad Afandiga (BOA, 1883:№5271), hijriy 1207-yilda Yangishahar Fanar qoziligi esa yana «Sulaymoniya» dorul hadisi mudarrisi Og‘a Imomzoda Ahmad Orif Afandiga (BOA, 1883:№245) topshirilgani ma’lum. Qolaversa, bunday tayinlovlar mazkur misollarning o‘zi bilan cheklanib qolmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, dorul hadislarning paydo bo‘lish jarayonida davlat idoralari uchun layoqatli va malakali kadrlar tayyorlash g‘oyasi ham muhim rol o‘ynagan deb aytish mumkin.

Har qanday ilm sohasida ixtisoslashuvning mavjudligi yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Buning uchun esa ixtisoslashuv ustiga quriladigan ilmiy zahira va infratuzilma bo‘lishi talab etiladi. Hadis ilmiga ixtisoslashgan ilk madrasa umumiy madrasalardan taxminan bir asr keyin tashkil etilgani ham buni tasdiqlaydi. Zero, qariyb bir asr avval boshlangan maktablashtirish jarayoni Damashqdagi «Nuriya» dorul hadisining tashkil etilishi uchun zarur bo‘lgan asosni yaratib bergan edi. Qolaversa, Nuriddin Mahmudning shaxsan o‘zi ko‘plab masjid, madrasa, dorush shifo (shifoxona) va dorul hadis qurdirib, ushbu ilmiy zahiraga katta hissa qo‘shgan. Uning davrida shakllangan ilmiy muhit otabeklik hududini barcha olimlar va shayxlar uchun jozibali markazga aylantirdi va islom olamining turli burchaklaridan bu yerga ilm ahli oqib kela boshladi (Sallobiy, 2006:135).

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Usmoniylar davlatida ham vaziyat shunga o‘xshash manzara kasb etgan. Ilk madrasa davlat tashkil topgan ilk yillarda Orxan G‘oziy tomonidan Iznikda barpo etilgan (M. Afandi, 1269:27). Bu davrda tashkil etilgan ilk dorul hadis markazi esa Chandarli Xalil Hayriddin Posho tomonidan Sulton Murod I zamonida yana Iznikda ochilgan (Uzuncharshili, 1974:23). Biroq u haqda bir necha jumladan tashqari, boshqa ma’lumot mavjud emas. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Usmoniylar davlatida nom qozongan ilk dorul hadis markazi Sulton Murod II tomonidan Edirnada qurdirilgan ixtisoslashgan madrasa bo‘lgan. Qonuniy Sulton Sulaymon davrida «Sulaymoniya» madrasalarining qurilishi bilan to‘la shakllangan Usmoniy ta’lim tizimida dorul hadis madrasa tizimining eng yuqori bosqichida turgan (Uzuncharshili, 1974:37).

Sulaymoniya majmuasi (kulliyoti) ichida dorul hadis madrasasining tashkil etilishi bilan bu davrda ixtisoslashuv sohalari bir-biridan to‘liq ajralib chiqdi. Shuningdek, «Islohi madoris» (Madrasalar islohoti) nizomnomasining asoslovchi hujjatida:«Dorul hadis va dorul qurro kabi unvonlar ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan ixtisoslashuv qiymatining naqadar yuksak qadrlanganiga ochiq-oydin dalildir», degan ibora o‘rin olgan. Usmon Ergin ham dorul hadislarni kasb-hunar va ixtisoslashgan madrasalar bo‘limi ichida o‘rganib:«Dorul hadislar madrasalardan ko‘ra yuqoriroq ixtisoslashgan muassasa edi», (U. Ergin, 1977:140) deya ta’kidlaydi.

Mazkur fikrlar dorul hadislarning ixtisoslashgan madrasa bo‘lganini hamda ilmiy zahiraga ehtiyoj sezganini isbotlaydi. Bundan tashqari, ushbu madrasalarga berilgan nomning o‘zi ham bu dargohlarning aynan ixtisoslashuv maqsadida ochilganini tasdiqlaydi. Ixtisoslashuv g‘oyasisiz bunday madrasalarning qurilishi amrimaholdir.

MUHOKAMA

Dorul hadislar tashkil etilish jarayonida ijtimoiy va siyosiy sabablar bilan bir qatorda, hadis ilmining tabiati va tarixiy taraqqiyoti ham ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu omillarni quyida ko‘rib chiqamiz:

1. Hadis talabida ilmiy safarlarning (rihla) nihoyasiga yetishi.

2. Imlo majlislarida ishtirok etuvchilar sonining ortishi.

3. Hadis sohasida «tadvin» (to‘plash) va «tasnif» (tartibga solish) davri yakunlandi, degan qarashning shakllanishi.

4. Hadis ilmining tuzilishi/tabiati.

5. Musulmonlarning hadis va sunnatga bergan yuksak ahamiyati.

Rihla muhaddislar hadislarni o‘rganish maqsadida amalga oshirgan ilmiy safarlarga berilgan umumiy nomdir. Bu safarlar hadis ilmi tarixida juda mashhur bo‘lgan. Hadis o‘rganuvchi talaba, eng avvalo, o‘zi yashab turgan hududdagi ustozlardan hadis eshitgan, keyin o‘ziga ma’lum bo‘lmagan hadislarni o‘rganish uchun safarga chiqar edi. Bu safarlar davomida talaba faqat shayxlar (ustozlar) sonini ko‘paytirishga emas, balki o‘z «samoi»ni (hadis tinglashini) oshirishga harakat qilar edi (Muborakfuriy, 1984:43).

Musulmon olimlari hadislarning matni va sanadini tadqiq qilish yoki ularni qo‘lga kiritish uchun ulkan zahmat chekkanlar. Ular bir dona hadis uchun ham uzoq masofani bosib o‘tib, turli o‘lkalarga safar qilgan. Ular bu yo‘lda barcha mashaqqat va qiyinchiliklarga bardosh berganlar (Xatib Bag‘dodiy, 1975:16). Shu munosabat bilan Jobir ibn Abdulloh (r.a.) Abdulloh ibn Unaysdan bittagina hadis olish uchun bir oylik yo‘l bosgan (Buxoriy, 1999:18). Abu Qiloba esa barcha ehtiyojlari bitgan bo‘lsa-da, bir dona hadis uchun Madinada yana uch kun ortiqcha qolib, o‘sha hadisni olgan. Jobirdan kelgan yana bir rivoyatda Busr ibn Ubaydulloh birgina hadisni eshitish uchun boshqa bir hududga sayohat qilgani aytiladi (Dorimiy, 1997:149).

Safarlar nafaqat hadis o‘rganish uchun, balki sahobiylar Payg‘ambarimizdan (s.a.v.) birga eshitgan rivoyatlar borasida shubhaga tushganlarida ham amalga oshirilgan. Masalan, sahobiylardan biri Payg‘ambarimizdan (s.a.v.) birga eshitgan hadisni Fadola ibn Iyoddan so‘rab aniqlash uchun Misrga safar qilgan (Dorimiy, 1997:151). Muhaddislar hadislarni yozib olish (zabt) va to‘plash uchun aql bovar qilmaydigan darajada vaqt, g‘ayrat va e’tibor sarflaganlar (Tahhon, 1996:168). Bu safarlar shu qadar keng tus olganki, hato ular muhaddislarning hadislarni o‘rganishdagi asosiy uslublaridan biriga aylangan (Xatib Bag‘dodiy, 1975:17) va mustahab amal sifatida ko‘rilgan (Tahhon, 1996:181).

Musulmon olimlari tomonidan alohida ahamiyat bilan qaralgan ilmiy safarning tarixiy ildizlari Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davriga borib taqaladi. Zero, sahobiylarning Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hayotlik chog‘larida savol so‘rash va ilm olish uchun U zotning huzurlariga kelganlari ma’lumdir (Xatib Bag‘dodiy, 1975:187). Shuningdek, hadis talabidagi safarlar islomning ilk davridan beri amalga oshirib kelinayotgan sunnat hamdir (Ibn Hajar Asqaloniy, 1984:37). Imom Buxoriy Anas ibn Molikdan rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambarimiz (s.a.v.) sahobiylar bilan masjidda o‘tirganlarida, Dimom ibn Sa’laba ismli kishi

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

tuyada kelib, tuyasini masjid hovlisiga cho‘ktirgani va Payg‘ambarimizga (s.a.v.) ba’zi savollarni bergani bayon qilingan (Buxoriy, 1999:15).

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davrida boshlangan ushbu faoliyat sahobiylar davriga kelib yanada kengaydi. Bu haqda manbalarda juda ko‘p ma’lumotlar kelgan. Jumladan, Amr ibn Abi Salama Avzoiyga:«To‘rt kundan beri siz bilan birgaman, lekin o‘ttizta hadisdan boshqa hech narsa eshitmadim», deganida, Avzoiy unga:«To‘rt kunda o‘ttizta hadisni kam deyapsanmi? Jobir ibn Abdulloh bitta tuya sotib olib, Uqba ibn Omirdan birgina hadisni so‘rash uchun Misrga borgan edi. Sen bo‘lsang to‘rt kunda o‘ttiz hadisni oz deb hisoblayapsan», deb javob bergan (Xatib Bag‘dodiy, 1975:125). Abdulloh ibn Mas’udning shogirdlari ham Hazrat Umardan hadis tinglash uchun Kufadan Madinaga safar qilganlar va hadisni eshitib, ortlariga qaytib ketganlar. Shuningdek, sahobiylardan Abu Ayyub va Jobir ham «oliy isnod»ga (qisqa zanjirli rivoyatga) erishish uchun safar qilgan (Tahhon, 1996:181). Ibn Abbos esa hadis olish uchun ansorlardan birining uyiga borar, uy egasi uxlayotgan bo‘lsa, u uyg‘onib tashqariga chiqquncha, uning ostonasida kutib yotar edi (Dorimiy, 1997:150).

Sahobiylarning davomchilari bo‘lgan tobeinlar ham bu qoidaga amal qilganlar. Ayniqsa, fathlar sababli turli hududlarga tarqalib ketgan sahobiylardan hadis o‘rganish maqsadida uzoq o‘lkalarga safarlarni amalga oshirganlar (Zahroniy, 1426:38). Molik orqali kelgan rivoyatda tobeinlarning ulug‘laridan Said ibn Musayyib birgina hadis olish uchun kecha-yu kunduz yo‘l yurgani aytiladi (Xatib Bag‘dodiy, 1975:127).

Hadis ilmining «oltin davri» deb hisoblangan hijriy III asr ulamolari ham ko‘plab safarlar qilgani manbalarda qayd etilgan. Ularning eng mashhurlaridan biri bo‘lgan Imom Buxoriy hadis talabida ko‘plab davlatlarga safar qilgan. U Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom va Misr shaharlarida hadislarni yozib olib, keyin Bag‘dodga kelgan (Ibn Xallikon, 1971:189). Shu tariqa, u islom olamining katta qismini aynan shu maqsadda kezib chiqdi. Shu davrning yana bir muhaddisi Ibn Moja ham muhaddislar odatiga ko‘ra, Xuroson, Iroq, Hijoz, Misr va Shomga safar qilgan. «Al-Kutub as-sitta» muallifi Imom Nasoiy ham oliy isnodga erishish uchun Xuroson, Hijoz, Misr, Iroq, Jazira va Shom kabi o‘lkalarga safar qilib, ko‘plab shayxlardan hadis tinglagan. Chunki o‘sha davrda hadis qabul qilish odoblaridan biri «ar-rihla fi talab al-hadis» edi (Ali Hamid, 1999:218, 232). Qolaversa, ba’zi muhaddislar nazdida rihla hadis o‘rganish odobidan ham yuqoriroq, ya’ni uning sharti hisoblangan. Yahyo ibn Ma’in va Ibn Salohning fikricha, rihla (ilmiy safar) qilmagan kishining rivoyatlariga ishonish kerak emas (Xatib Bag‘dodiy, 1975:17).

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davridan boshlangan va keyingi asrlarda keng tus olgan bu ilmiy safarlar hijriy IV asr oxiridan boshlab susaya boshladi. Ba’zi manbalarda Ibn Mandaning ushbu sayyoh-muhaddislarning oxirgisi bo‘lgani aytiladi (Zahabiy, 1377:1032). Biroq boshqa manbalarda Ibn Mandadan keyin yashagan ko‘plab muhaddislar, jumladan Ibn Hajarning ham ilmiy safarlari haqida so‘z boradi. Bu safarlar Ibn Hajar zamonigacha davom etgani qayd etilgan (Ibn Hajar Asqaloniy, 1984:37).

Hadis talabidagi safarlarning yakunlanishi haqidagi bir-biriga ziddek ko‘ringan ushbu ma’lumotlarni oydinlashtirish uchun hijriy IV asr oxiri va V asr boshlaridagi hadis naql qilish tizimiga nazar solish kerak. Chunki hijriy V asrdan boshlab naql tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu yuz yillik hadis tarixidagi turli tasniflarga ko‘ra «mutaaxxirun» (keyingilar) davrining boshlanishi, tasnif davrining yakunlanishi yoki ochilish (kengayish) davriga to‘g‘ri keladi. Qaysi nom ishlatilishidan qat’i nazar, hijriy V asrdan boshlab hadis naql qilish jarayonida katta o‘zgarishlar bo‘lgani aniq. Zero, hijriy V asr bilan rivoyat (og‘zaki naql) davri o‘z nihoyasiga yetdi (O‘zafshar, 2006:260).

Shaxslardan eshitish orqali rivoyat qilish uslubi o‘rniga, kitoblardan rivoyat qilish ishonchli va ustuvor uslubga aylandi (Yardim, 1997:161). Ya’ni, Ibn Manda davridagi safarlarda muhaddislar eshitib rivoyat qilgan bo‘lsalar, Ibn Hajar davrida kitobdan rivoyat qilish asosiy o‘ringa chiqdi. Bu esa tasnif davrining tugashi bilan safarlarning mohiyati o‘zgarganini ko‘rsatadi. Shuningdek, mavzularni isnodli ma’lumotlar bilan yoritish an’anasi ham mutaaxxirun davridan boshlab tark etila boshlandi. Mutaqaddimun (ilgarigilar) va mutaaxxirun ajralishi esa Xatib Bag‘dodiy (vaf. 463-y.) bilan belgilanadi (Chakan, 2012:17). Ya’ni, Xatib Bag‘dodiydan keyin hadislarni isnod bilan naql qilish an’anasi umumiy miqyosda yo‘qoldi.

Ko‘rinib turibdiki, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davrida boshlangan bu safarlar hadis sohasida tadqiqot olib borish uslubining o‘zgarishi bilan hijriy IV asr oxiridan susaya boshladi va tasnif davrining tugashi bilan tarixga aylandi. Albatta, bu safarlar Ibn Manda bilan birdaniga to‘xtab qolgani yo‘q. Uzoq vaqt davom etgan bunday safarlarning tugashini aniq bir sana bilan belgilash qiyin. Biroq bu sayohatlar avvalgi shiddatini yo‘qotib, vaqt o‘tishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotganini aytish mumkin.

Hadis ilmi tarixidagi bu rivojlanish to‘plangan materiallar ustida chuqurroq ishlashni taqozo etdi. Endilikda shaxsma-shaxs yurib hadis to‘plash emas,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

balki to‘plangan va tasnif etilgan ulkan ilmiy xazina ustida tadqiqotlar olib borish zarurati tug‘ildi. Tasnif davridan keyin yuzaga kelgan sharoitlar bunday tadqiqotlar o‘tkaziladigan makon va ta’lim-tarbiya muassasalarini qurishni talab qildi. Zero, bu davr ilk tizimlashgan madrasalarning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. «Nizomiya» madrasalari tashkil etilgan sana hijriy 459-yil bo‘lsa, mutaqaddimun davrining so‘nggi vakili hisoblangan Xatib Bag‘dodiyning vafoti esa hijriy 463-yildir. Yuqorida ta’kidlanganidek, bundan taxminan bir asr o‘tib, dorul hadislar tashkil etila boshlandi. Shu tariqa, yangi davr hadis tadqiqotlariga hissa qo‘shadigan maxsus muassasalar vujudga keldi. Mazkur muassasalar esa rihlalarning (ilmiy safarlarning) butunlay zaiflashishiga va tarixga aylanishiga sabab bo‘ldi (Yardim, 1997:186).

Hadis safarlarining yakunlanishi bilan dorul hadislarning vujudga kelishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun quyidagi savolni berish mumkin:bunday ixtisoslashgan madrasalar hadis safarlari davom etayotgan bir paytda qurilganida, o‘z mavjudligini saqlab qola olarmidi? Bizning nazarimizda, hijriy V asrgacha bo‘lgan naql tizimi va safarlarning maqsadlari (Xatib Bag‘dodiy, 18-23) hisobga olinsa, bu savolga javob salbiy bo‘ladi. Zero, rivoyat davom etayotgan, isnoddan foydalaniladigan va shaxslardan rivoyat qilish asosiy uslub bo‘lib turgan davrda dorul hadislar mavjud bo‘lishda davom etishi deyarli imkonsiz edi. Bunday holatda safarlarning yakunlanishi bilan maktablashtirish (ta’lim tizimining shakllanishi) o‘rtasida bog‘liqlik borligini va bu dorul hadislarning qurilishi uchun zamin hozirlaganini aytish mumkin.

Imlo so‘zi lug‘atda «to‘ldirish» ma’nosini ifoda etadi. Biroq u asosan «yozib qo‘ydirish», «yozdirish» ma’nolarida qo‘llanadi. Hadis ilmi istilohida esa mazkur atama hadis shayxining unga murojaat qilgan yoki u tashkil etgan hadis majlislarida ishtirok etgan shaxslarga hadis yozib berish jarayoniga nisbatan ishlatiladi (Ug‘ur, 1992:161). Bu majlislarda kitobidan yoki yoddan o‘qib hadis yozib bergan ustoz «mumliy», ustozning so‘zlarini imlo majlisida hozir bo‘lganlarga eshittirish uchun baland ovozda takrorlovchilar «mustamliy» (Kochyigit, 1985:279), bu yo‘l bilan yuzaga kelgan adabiyotlar esa «amoliy» (Okich, 1959:94) deb ataladi. Imlo hadis qabul qilish usullarining eng oliy darajasi hisoblanadi (Suyutiy, 2010:411). Imlo majlislari ishtirokchilari soniga qarab masjid, jome yoki keng maydonlarda (Kochyigit, 1985:167), asosan, juma kunlarida tashkil etilgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) tuzgan bitimlar hamda turli o‘lkalarga yuborgan maktublari bu turning ilk namunalari hisoblanadi va ushbu an’ananing boshlanishi deb qaraladi. Bu usulni sahobiylar va tobeinlar ham davom ettirgan, keyingi asrlarda ham juda keng qo‘llanilgan. Shu’ba ibn Hajjoj (vaf. 160-y.), Vaki’ ibn Jarroh (vaf. 197-y.), Yazid ibn Horun (vaf. 206-y.), Osim ibn Ali Taymiy (vaf. 221-y.), Amr ibn Marzuq Bohiliy (vaf. 224-y.), Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 256-y.), Abu Muslim Kechchi (vaf. 292-y.), Ja’far ibn Muhammad Firyobiy (vaf. 301-y.) kabi shaxslar ham hadis imlo majlislari tashkil etganlar (Sam’oniy, 1981:15, 42). Imlo tizimi hijriy X asrgacha davom etgan (Okich, 1959:95).

Manbalarda bunday majlislarda ishtirok etuvchilar soni borasida juda katta raqamlar keltiriladi. Bu raqamlarni keltirish ishning ko‘lamini ko‘rsatish jihatidan muhimdir. Masalan, Bag‘dodda o‘tkazilgan bir hadis majlisida yetmish ming kishi ishtirok etgan. Osim ibn Ali ibn Osimning majlisida esa 120 ming kishi to‘plangan. Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning Bag‘doddagi majlisida ham 20 mingdan ortiq odam jamlangan.

Muhammad ibn Ahmad ibn Xolid shunday degan:«Basrada Amr ibn Marzuqning majlisidan ko‘ra gavjumroq majlis bo‘lmagan. Undada o‘n ming kishi qatnashgan edi». Ibn Adiy keltirgan ma’lumotga ko‘ra, Firyobiyning majlisida o‘n ming yoki undan ortiq odam ishtirok etgan. Ja’far Firyobiyning majlisida faqat yozuvchilarning o‘zi o‘n ming nafar bo‘lgani qayd etilgan. Abu Bakr Ja’far ibn Muhammad Firyobiy Bag‘dodga kelganida esa o‘ttiz ming odam to‘plangan va 316 nafar mustamliy xizmat qilgan.

Abu Is’hoq Ibrohim ibn Ali Hujaymiyning majlisida o‘ttiz ming kishi hozir bo‘lgan. Abu Hafs Umar ibn Zafar Mag‘oziliy Bag‘dodda Shayx Abu Fazl ibn Yusufning majlisiga kelganlarning ismlarini yozish uchun siyohdon topilmaganini qayd etgan. Shuningdek, Sam’oniy (vaf. 562-y.) mutaaxxirun davrida imlo majlislari tashkil etgan zotlarning nomlarini ular faoliyat yuritgan joylari bilan birga zikr etadi (Sam’oniy, 1981:16-23). Bu mavzuda ma’lumot beruvchi mualliflardan biri G‘aytiydir (vaf. 981-y.). U birinchi asrda tashrif buyuruvchilari ko‘p bo‘lgan hadis majlislari tashkil etilgani va juda ko‘pchilik o‘z yurtlariga hadislarni yetkazish uchun bu majlislarda hozir bo‘lganini bildiradi. U keltirgan raqamlarga ko‘ra, bu majlislarning birida yuz ming, boshqa birida esa tinglash uchun kelganlar bundan mustasno, faqat yozuvchilarning soni qirq mingga yetgan. Sam’oniy va G‘aytiyning (vaf. 981-y.) asarlarida zikr etilgan bu sonlar hisobga olinsa, imlo majlislarida ishtirok etuvchilar soni ancha ortgani ko‘rinadi. Sonning bu qadar ortishi esa o‘z navbatida maktablashtirishni taqozo qildi. Darhaqiqat, G‘aytiy o‘z asarida yuqorida zikr etilgan raqamlarni bergandan so‘ng, madrasalar shu sababdan qurilganini aytadi (G‘aytiy, №4384. 3[a]).

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Bizning nazarimizda, ayni asos dorul hadislar uchun ham amal qiladi. Zero, ba'zi dorul hadislarda imlo majlislari o'tkazilgani manbalarda zikr etiladi (Hofiz, 2006:16). Shuningdek, Toyyib Okich ham dastlabki davrda hadis darslari «majolis» deb nomlangan yirik majlislar ko'rinishida o'tkazilgani, ularni yanada tizimlashtirish ehtiyoji yuzaga kelishi bilan dorul hadislar qurila boshlaganini ta'kidlaydi (Okich, 1959:105).

Hadis ilmi tarixida hijriy V asrda hadis mudannavotlari (to'plangan hadislar to'plami) mohiyati o'zgarganini yuqorida zikr qilingan edi. Bu o'zgarish tadvin (yozib olish) va tasnif (tartibga solish) davri ham yakunlandi, degan fikrni yuzaga keltirdi. Chunki rivoyat qilingan barcha hadislar hijriy V asr boshlaridan e'tiboran kitoblarda aks etgan edi. Musanniflar o'z asarlarida zikr etmagan yoki sahihligi haqida hukm chiqarmagan hadisni topish haqiqatan ham nodir holatga aylandi (Lahhom, 2010:72). Mazkur asrning oxirlaridan e'tiboran esa, shu kungacha kitoblarda o'rin olmagan rivoyatlarning hadis deb qabul qilinishi prinsipial jihatdan shubha bilan qarshi olindi (Yardim, 1997:105).

Hadis ilmi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Eng avvalo, isnoddan foydalanish hadisni boshqa ilm sohalaridan ajratib turuvchi muhim xususiyat hisoblanadi. Bu holat rijol (roviylar tarjimai holi) va sanadga oid ko'plab xususiyatlarni o'z ichiga olishiga sabab bo'lgan. Sanad bilan birga, hadis matnlari hadis ilmining asosiy mavzusini tashkil etadi. Shu bois, u juda keng maydonni qamrab oladi. Bu xususiyat tadvin va tasnif faoliyatlari bilan birga ko'plab jildlardan iborat asarlarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Dorul hadislarning tashkil etilishiga to'g'ri kelgan davrda esa bunday faoliyat asosan yakunlangan edi. To'plam holatida jamlangan bu ulkan xazinani qayta ishlash hamda uning ustida tadqiqot olib borish uchun mustaqil maskanlarga ehtiyoj sezilishi tabiiy. Darhaqiqat, hadis adabiyotiga nazar solinsa, tadvin va tasnif davrida bir joyga jamlangan bu materiallar dorul hadislar qurilgandan keyingi davrda tadqiq etilganini ko'rish mumkin.

«Amasya Tarixi» muallifi Abdizoda Husayn Husomiddin hadis ilmining tuzilish xususiyatining dorul hadislarning tashkil etilish jarayoniga ta'sirini quyidagicha izohlaydi:«Maxsus bir usul asosida, yo'llar va isnodlarda, roviylar tarjimai holi va ularning ahvolini tanqid qilishga asoslangan keng qamrovli ilm bo'lgani sababli, bu ilmni ulug' ajdodlarimiz boshqa ilmlardan ajratib, uni o'rganish uchun maxsus bir madrasa bino qildilar va uni «dorul hadis» deb atadilar» (Abdizoda, 1328:269). Bu barcha xususiyatlarni o'z ichida jamlagani va islom dinining ikkinchi manbasi bo'lgani sababli hadis musulmonlar uchun muhim bir ilm sohasidir. Bu ahamiyatiga binoan u dorul hadislarning paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatgan omil bo'lgan (Boltaji, 1976:20).

Dorul hadis va dorul qurro (Qur'on) kabi ixtisoslashgan madrasalarning vujudga kelishiga Qur'on va hadis madrasa dasturlarida o'rin olgan barcha darslarning asoslarini qamrab oladi, degan qarash ham ta'sir qilgan (Javdat, 1978:93). Bunga ko'ra, maktablarda o'qitiladigan barcha darslarning manbai Qur'on va hadis hisoblanadi.

Hadislar islom dinining Qur'ondan keyingi ikkinchi manbasi hisoblanadi. Zero, Qur'onda Payg'ambarimiz (s.a.v.) keltirgan narsalarni olish va U qaytargan narsalardan saqlanish (Abdulaziz Mansur, 2021:546) (Hashr surasi, 7-oyat) buyurilgan. Shuningdek, U zotga itoat qilish Allohga itoat qilish bilan birga zikr etiladi (Abdulaziz Mansur, 2021:54) (Oli Imron, 32-oyat) va Allohning Rasuliga itoat qilgan kishi Allohga itoat qilgan bo'lishi (Abdulaziz Mansur, 2021:91) (Niso surasi, 80-oyat) ta'kidlanadi. Mazkur ma'lumotlar hadisning «hujjat» (dalil) sifatida qabul qilinishini va huquqiy sohada dalil bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga, Allohdan va oxirat kunidan umidvor bo'lganlar uchun Payg'ambarimizda (s.a.v.) go'zal o'rnak borligi (Abdulaziz Mansur, 2021:420) (Ahzob surasi, 21-oyat) ta'kidlanadi. Bunga parallel ravishda hadislarning bir qismi bevosita yashagan tajribani ifoda etishi, musulmonning modelini belgilashda ta'sirlidir. Shu tariqa, hadislar musulmon o'z hayotida amal qiladigan tamoyillarning asosini tashkil etadi. Aynan shuning uchun musulmonlar hadislarni o'rganishga alohida ahamiyat berganlar.

Sufyon Savriy (vaf. 161-y.) shunday deydi: «Allohning roziligini istagan kishi uchun hadis o'rganishdan ko'ra fazilatliroq ilmni bilmayman. Odamlar yeb-ichishga qanchalik muhtoj bo'lsalar, unga ham shunchalik muhtojdirlar. U nafl ibodatlaridan ham ustunroqdir. Chunki u farz kifoya hisoblanadi». Shu e'tibordan, Payg'ambarimiz (s.a.v.) davridan boshlab, barcha asrlarda hadislarga e'tibor aslo kamaymadi. Bu e'tibor davr va muhit taqozosiga ko'ra, turli shakllarda namoyon bo'lgan. Jumladan, islomning ilk davrida hadislarni asrash, naql, tadvin va tasnif qilish shaklida «subut» (hadisligining isboti) muammosi ustida jamlangan. Keyingi asrlarda esa hadislarni tushunish va sharhlashga ehtiyoj kuchayib, hadislarning dalolati (Erol, 2006:350) mavzusida izlanishlar olib borilgan. Natijada deyarli har bir sohaga manba bo'ladigan darajada keng rivoyatlar va keng ko'lamli adabiyot vujudga kelgan. Zero, rivoyatlar

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ibodatlardan muomalotga, ijtimoiy hayotdan shaxsiy xulq-atvorga, fazilatlardan axloqqacha keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu tariqa, musulmonlar uchun barcha sohada muhim bo'lgan hadislar ilmiy faoliyat maydonida ham joziba markaziga aylandi.

Asrlar davomida turli ko'rinishlarda bo'lsa-da, hadislarga yuksak e'tibor davom etdi. Bizning nazarimizda, ta'lim tizimining shakllanishi jarayonida ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Musulmonlarning hadislarga bo'lgan qiziqishlari natijasida hadis o'qitishda muhim o'rin tutgan dorul hadislar barpo etildi. «Xitat ash-Shom» muallifi Kurd Alining dorul hadislar mavzusini musulmonlarning Qur'on va sunnatni tushunish va idrok etish uchun hadis rivoyatlariga bo'zlgan qiziqishlari haqida so'z yuritishdan boshlashi (Ali, 1983:71), uning ham shu fikrda ekanini ko'rsatadi.

XULOSA

Tizimlashgan va funksional ilk dorul hadis markazi hijriy VI asrda paydo bo'lgan. Bu muassasalarning barpo etilishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash uchun o'sha davrda yuz bergan siyosiy va ijtimoiy voqealar hamda hadis ilmining tuzilishi va tarixiy rivojlanishini umumiy tahlil qilish talab etiladi. Shuningdek, ushbu sabablarni alohida o'rganish mavzuning oydinlashishi nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Shu bois, hijriy VI asr va undan oldingi islom olamiga nazar tashlansa, botiniy/fotimiy qarashlar hamda ularga qarshi ahli sunna ta'limotini himoya qilishga bo'lgan intilishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu kurashda Saljuqiylar davlati uslub sifatida ta'lim-tarbiyani qabul qildi va ta'lim tizimini shakllantirish jarayonini boshlab berdi. Ilk dorul hadis asoschisi bo'lgan saljuqiy otabegi Nuriddin Zangiy esa umumiy madrasalar qatorida hadis o'qitishga alohida ahamiyat berib, shu maqsadda dorul hadislar qurdirdi. Shu bois, Zangiy nazarida botiniy/fotimiy g'oyalariga qarshi kurashda hadis ta'limining muhim o'rni borligini aytish mumkin.

Siyosiy va ijtimoiy voqealar bilan birga, hadis ilmining tabiati va tarixiy rivojlanishi ham dorul hadislarning barpo etilishida muhim omil bo'ldi. Zero, hadis yo'lidagi safarlarning (rihla) susayishi va hadisda tadvin va tasnif davri yakunlandi, degan fikrning keng tarqalishi hadis naql qilish jarayonida tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Boshqa tomondan, imlo majlislarida ishtirok etuvchilar sonining keskin ortishi hadis o'qitish uchun maxsus makonga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bundan tashqari, musulmonlarning hadisga e'tibori va hadis ilmining o'ziga xos tabiati ham ushbu muassasalarning barpo etilishini tezlashtiruvchi omillar qatorida zikr etilishi mumkin.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Husayn Husomiddin Abdizoda. (1328 AH). Tarih-i Amasya. Hikmet Matba-i İslamiyyesi.
2. Abdulaziz Mansur. (2021). Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Sano-standart.
3. Abu Shoma Abdurahmon ibn Ismoil. (2002). Kitob ar-ravzatayn fi axbor ad-davlatayn. Dor al-kutub al-ilmiya.
4. Ali Yardim. (1997). Hadis. Damla Yayınevi.
5. Sa'd ibn Abdulloh Ali Hamid. (1999). Manohij al-muhaddisin. Dor ulum as-sunna.
6. Ahmad Chalabiy. (1983). Islamda eğitim öğretim tarihi. Damla Yayınları.
7. Başbakanlık Osmanlı Arşivi (BOA). (1883). Cevdet Adliye (No. 245). İstanbul.
8. Başbakanlık Osmanlı Arşivi (BOA). (1883). Cevdet Adliye (No. 5271). İstanbul.
9. Nebi Bozkurt. (1993). Dor al-hadis. In Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (Vol. 8).
10. Cahid Boltaji. (1976). XV–XVI asırlarda Osmanlı medreseleri. İrfan Matbaası.
11. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. (1999). Sahih al-Buxoriy. Dor as-salom.
12. N. G'aytiy. (n.d.). Al-faroid al-muntazama [Manuscript, İsmail Saib Sencer kısmı, No. 4384]. Ankara Üniversitesi DTCF Kütüphanesi.
13. Abdulloh ibn Abdurrahmon Dorimiy. (1997). As-Sunan. Dor al-kutub al-arabiy.
14. M. Javdat. (1978). Mektep ve medrese. Çınar Yayınları.
15. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (1377 AH). Tazkirat al-huffoz. Matbaa doira al-maorif al-usmoniya.
16. Imodiddin Abul Fido Ismoil ibn Umar ibn Kasir. (1998). Al-Bidoya va-n-nihoya. Dor hijr.
17. Muhammad ibn Sa'd. (2001). Kitob at-tabaqot al-kabir. Maktaba al-Xonjiy.
18. Ahmad ibn Muhammad ibn Xallikon. (1971). Vafayot al-a'yon. Dor sodir.
19. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. (1984). An-Nukat ala kitob Ibn as-Saloh. Ihyo at-turos al-islomiy.
20. Talat Kochyigit. (1985). Hadis ıstılahları. Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Yayınları.
21. Badi' Sayyid Lahhom. (2010). Al-Izoh fi ulum al-hadis va-l-istiloh. Dor al-kalima at-toyyiba.
22. M. Afandi. (1269 AH). Hadoiq ash-shaqoiq. Dor at-tiboa al-omira.
23. Abul Hasan Muborakfuriy. (1984). Mishkot al-masobih. Idora al-buhus al-ilmiya.
24. Nuri To'palo'g'li. (1988). Selçuklu devri muhaddisleri. Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları.
25. Abdulqodir ibn Muhammad Nuaymiy Dimashqiy. (1990). Ad-Doris fi tarix al-madoris. Dor al-kutub al-ilmiya.
26. Tayyib Okich. (1959). Bazı hadis meseleleri üzerine tetkikler. Osman Yalçın Matbaası.
27. Mehmet Zeki Pakalin. (1983). Osmanlı tarih deyimleri ve terimleri sözlüğü. Milli Eğitim Basımevi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

28. Muhammad Ali Sallobiy. (2007). Davlat as-salojiqa. Muassasa iqro.
29. Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniy. (1981). Adab al-imlo va-l-istimlo. Dor al-kutub al-ilmiya.
30. Muhammad Suhayl Takkush. (1999). Tarix az-zangiyyin fi-l-Musul va bilod ash-Shom. Dor an-nafois.
31. Mahmud Tahhon. (1996). Taysir mustalah al-hadis. Maktaba al-maorif.
32. Osman Ergin. (1977). Türk maarif tarihi. Eser Matbaası.
33. Mücteba Ug'ur. (1992). Ansiklopedik hadîs terimleri sözlüğü. Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları.
34. Mehmet Emin O'zafshar. (2006). Hadis tarixi. Ankuzem.
35. Ismoil Haqqi Uzuncharshili. (1974). Çandarlı vezir ailesi. Türk Tarih Kurumu Yayınları.
36. Usmon Turon. (1969). Selçuklular tarihi ve Türk İslâm medeniyeti. Turan Neşriyat ve Matbaacılık.
37. Ahmad ibn Ali Xatib Bag'dodiy. (1975). Ar-Rihla fi talab al-hadis. Dor al-kutub al-ilmiya.
38. M. Hofiz. (2006). Al-Mahosin as-sultoniya. Dor al-bayrutiy.
39. İsmail Lütfi Chakan. (2012). Hadis usuli. Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Yayınları.
40. B. Erol. (2006). Hadis ve sünnetle ilgili temel problemler. Ankuzem.

REFERENCES

1. Husayn Husomiddin Abdizoda. (1328 AH). Tarih-i Amasya. Hikmet Matba-i İslamiyyesi.
2. Abdulaziz Mansur. (2021). Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Sano-standart.
3. Abu Shoma Abdurahmon ibn Ismoil. (2002). Kitob ar-ravzatayn fi axbor ad-davlatayn. Dor al-kutub al-ilmiya.
4. Ali Yardim. (1997). Hadis. Damla Yayınevi.
5. Sa'd ibn Abdulloh Ali Hamid. (1999). Manohij al-muhaddisin. Dor ulum as-sunna.
6. Ahmad Chalabiy. (1983). İslâm'da eğitim öğretim tarihi. Damla Yayınları.
7. Başbakanlık Osmanlı Arşivi (BOA). (1883). Cevdet Adliye (No. 245). İstanbul.
8. Başbakanlık Osmanlı Arşivi (BOA). (1883). Cevdet Adliye (No. 5271). İstanbul.
9. Nebi Bozkurt. (1993). Dor al-hadis. In Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (Vol. 8).
10. Cahid Boltaji. (1976). XV–XVI asırlarda Osmanlı medreseleri. İrfan Matbaası.
11. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. (1999). Sahih al-Buxoriy. Dor as-salom.
12. N. G'aytiy. (n.d.). Al-faroid al-muntazama [Manuscript, İsmail Saib Sencer kısmı, No. 4384]. Ankara Üniversitesi DTCF Kütüphanesi.
13. Abdulloh ibn Abdurrahmon Dorimiy. (1997). As-Sunan. Dor al-kutub al-arabiy.
14. M. Javdat. (1978). Mektep ve medrese. Çınar Yayınları.
15. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (1377 AH). Tazkirat al-huffoz. Matbaa doira al-maorif al-usmoniya.
16. Imodiddin Abul Fido Ismoil ibn Umar ibn Kasir. (1998). Al-Bidoya va-n-nihoya. Dor hijr.
17. Muhammad ibn Sa'd. (2001). Kitob at-tabaqot al-kabir. Maktaba al-Xonjiy.
18. Ahmad ibn Muhammad ibn Xallikon. (1971). Vafayot al-a'yon. Dor sodir.
19. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. (1984). An-Nukat ala kitob Ibn as-Saloh. Ihyo at-turos al-islomiy.
20. Talat Kochyigit. (1985). Hadis ıstılahları. Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Yayınları.
21. Badi' Sayyid Lahhom. (2010). Al-Izoh fi ulum al-hadis va-l-istiloh. Dor al-kalima at-toyyiba.
22. M. Afandi. (1269 AH). Hadoiq ash-shaqoiq. Dor at-tiboa al-omira.
23. Abul Hasan Muborakfuriy. (1984). Mishkot al-masobih. Idora al-buhus al-ilmiya.
24. Nuri To'palo'g'li. (1988). Selçuklu devri muhaddisleri. Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları.
25. Abdulqodir ibn Muhammad Nuaymiy Dimashqiy. (1990). Ad-Doris fi tarix al-madoris. Dor al-kutub al-ilmiya.
26. Tayyib Okich. (1959). Bazı hadis meseleleri üzerine tetkikler. Osman Yalçın Matbaası.
27. Mehmet Zeki Pakalin. (1983). Osmanlı tarih deyimleri ve terimleri sözlüğü. Milli Eğitim Basımevi.
28. Muhammad Ali Sallobiy. (2007). Davlat as-salojiqa. Muassasa iqro.
29. Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniy. (1981). Adab al-imlo va-l-istimlo. Dor al-kutub al-ilmiya.
30. Muhammad Suhayl Takkush. (1999). Tarix az-zangiyyin fi-l-Musul va bilod ash-Shom. Dor an-nafois.
31. Mahmud Tahhon. (1996). Taysir mustalah al-hadis. Maktaba al-maorif.
32. Osman Ergin. (1977). Türk maarif tarihi. Eser Matbaası.
33. Mücteba Ug'ur. (1992). Ansiklopedik hadîs terimleri sözlüğü. Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları.
34. Mehmet Emin O'zafshar. (2006). Hadis tarixi. Ankuzem.
35. Ismoil Haqqi Uzuncharshili. (1974). Çandarlı vezir ailesi. Türk Tarih Kurumu Yayınları.
36. Usmon Turon. (1969). Selçuklular tarihi ve Türk İslâm medeniyeti. Turan Neşriyat ve Matbaacılık.
37. Ahmad ibn Ali Xatib Bag'dodiy. (1975). Ar-Rihla fi talab al-hadis. Dor al-kutub al-ilmiya.
38. M. Hofiz. (2006). Al-Mahosin as-sultoniya. Dor al-bayrutiy.
39. İsmail Lütfi Chakan. (2012). Hadis usuli. Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Yayınları.
40. B. Erol. (2006). Hadis ve sünnetle ilgili temel problemler. Ankuzem.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.